

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

“PEDAGOGIKA” FAKULTETI

«MAKTABGACHA TALIM» KAFEDRASI

«Maktabgacha talim» ta'lim yo'nalishi 3 “d” kurs talabasi

Tanirbergenova Diloromning

«Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari, mazmuni va moxiyati

Qabul qildi:

G.Torebekova



Nukus-2014 yil

MAVZU: TARBIYaNING UMUMIY METODLARI, MAZMUNI VA MOHIYaTI

Mazmuni:

- I Kirish
- II Asosiy qism
 - II.1 Tarbiya jarayonining xususiyatlari
 - II.2 Tarbiya qoidalari
 - II.3 Tarbiyaning umumiy usullari
 - II.4 Tarbiya jarayonida pedagogik maxorat
- Xulosa
- Foydalangan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taaluqli ko'pgina tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.

Bu boradagi vazifalar yosh avlodni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash. Vatan ravnaqi xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi shaxslarni tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda. Tarbiya qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Tarbiya metodlari yunoncha («metodos»- yo'l)-bu o'qituvchi(tarbiyachi) va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullari demakdir. Tarbiya metodlari o'quvchi(tarbiyalanuvchilar)ning o'z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan, birgalikdagi faoliyati usuli sifatida qarab chiqiladi.

O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladilar. Bu ularning individual xususiyatlariga, tarbiyalangalik darajasiga. Tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlangani hamda mohirona qo'llanilganligiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda, o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash va faoliyatini rag'batlantirishda yordam beradi. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirishib olish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot maqsadi: O`quvchilarga tarbiyaning umumiy metodlar, mazmuni va mohiyatini o`rgatish va pedagogik omillarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari: Mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o`rganish, tahlil qilish, umumlashtirish asosida hozirgi vaqtda tarbiyaning umumiy metodlar, mazmuni va mohiyatiga qo`yiladigan talablarning didaktik asoslarini aniqlash.

II.1 TARBIYA JARAYONINING XUSUSIYATLARI

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi bilan uzviy bog'langandir.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zara ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi oila, davlat oldidagi ma'suliyatini anglab etadigan har tomonlama etuk shaxsni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy kuchlarni taraqqiy ettirishdek yuksak madaniyatlarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish, intellektual va ma'naviy kuchlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga molikligi qayd etib o'tildi. Bugungi kunda

shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon taqozosidir.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojladi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

O'quvchi kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. Tarbiyalanuvchining yoshi ulg'aygani sari bu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatlarga ega bo'lib boradi; tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z-o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar.

II.2 TARBIYA QOIDALARI

Tarbiya qoidasi - pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf — donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo'lib, tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiyaning mohiyati, mazmuni, qoidalari mamlakatimizda yangicha iqtisodiy munosabat sharoitlarining o'zgarganligi sababli kengayib bormoqda.

Tarbiyaviy jarayonni yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, usullarni, g'oyalarni qaytadan ko'rib chiqishimiz, shuningdek asosiy e'tiborni O'quvchi shaxsiga qaratishimiz, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanishimiz zarur. Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligi qoidasi, tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi qoidasi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi.

Zamonaviy O'quv yurtining asosiy vazifasi — shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyg'uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish,

imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuningdek, o`quvchilarda milliy g`urur va milliy axloq-odobni shakllantirishni ko`zda tutadi.

Tarbiyaviy ish ma`lum maqsadni ko`zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko`pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o`quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o`rishini ta`minlaydi.

Maqsadga intilish va maqsad bir xil narsa emas. Yaxshi bir maqsad izhor qilingan bo`lsa-da, ammo bu maqsadni amalga oshirish uchun hech qanday ish qilinmagan bo`lishi mumkin. Shuning uchun maqsadni amalga oshirish uchun harakat qilish lozim.

Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyaning umumiy maqsadlari bilan bog`lashni, uni rejali tarzda va qat`iy sur`atda amalga oshirishga harakat qilishni talab etadi.

Ma`lumki, O`zbekiston o`rta jarayonini boshdan kechirmoqda. hozirgi sharoitda yoshlarni jamiyatimiz g`oyalarining kuchiga ishonitirish, yangi jamiyatni barpo etishda o`z xissalarini qo`shishga ijtimoiy-foydali mehnatda bevosita ishtirok etishga rag`batlantirish juda muhimdir.

Tarbiyaning ma`lum maqsadga kiritilganlik qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko`ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o`ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo`ysundirilgan bo`lsa, uning g`oyaviy-siyosiy darajasini ko`taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta`siri yuqori bo`ladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir tarbiyalanuvchining betakror va o`ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Tarbiyani demokratiyalash – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o`rtasidagi o`zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o`zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb etish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir.

O'qituvchi o'quvchiga, avvalgidek, tarbiya ob'ekti emas, xuddi o'zi kabi sub'ekt deb qarashi darkor.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik — tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi qoidasi. Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avvaliga tarbiyalanuvchilardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi bir so'zli; o'z lafziga sobit bo'lishi kerak.

O'quvchilarga birdaniga juda ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Tarbiya va ta'lim berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak.

Hamma tarbiyachilar o'quvchiga bo'lgan munosabatlarida bir-birlariga zid harakatda bo'lmasliklari, bir xil yagona talab qo'yishlari lozim. Tarbiyaviy ishda bunday izchilikka rioya etish juda ham muhimdir.

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish, muomalani avvalgicha davom ettirish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Afsuski, amalda ba'zan oila O'quv yurti talablarini qo'llab-quvvatlamaydigina emas, balki o'quvchiga teskari ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar orasida ham talablarning bir xilligi hamisha ta'minlanavermaydi. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiya ishida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning hamjihat va bamaslahat ish ko'rishini ko'zda tutadi. Chunki tarbiyaviy ta'sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamini qamrab olishi kerak.

III BOB. TARBIYANING UMUMIY USULLARI

O'quvchi o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xoxlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga O'quvchi o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmayotligi lozim. O'quvchilar yaqin kishilarining munosabatlarini yaxshi bilsa, bu unga ishda yordam bersa, shundagina O'quvchi pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchi - do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki dunyosini ochib ko'rsatadilar.

Yuqorida aytganimizdek tarbiya — tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar — bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar — bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar, tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

Demak, tarbiya usuli — tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usulidir. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullari tarbiya metodlari deb ham nomlanadi.

«Metod» so'zi yunonchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi.

Ta'lim usullari singari tarbiya usullari ham alohida qismlarga bo'linadi. Usul va uslub bir-biri bilan o'zaro bog'langan holda pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-biriga o'tib turishi mumkin.

O'qituvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan: sinf majlisi, yig'ilishlar, ertalabki lineyka, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali qo'llanmalar, kitoblar, radio, televidenie). Bundan tashqari o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari — kinofil'mlar, san'at asarlari, o'quvchining jonli so'zi, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin. Tarbiya

natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq.

Tarbiyachilar ta'sir etishning O'quvchi shaxsiga mos usulini, eng maqbul usulni tanlab olishlari, uning shaxsini o'zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari darkor.

Tarbiya usullari har bir tarbiya oluvchiga, turli yoshdagi o'quvchilar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasiga tarbiya usuli deyiladi.

Tarbiya g'oyatda murakkab jarayon bo'lib, har davrning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi. Uning usullari, vosita va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o'zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o'z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasida tarbiya usullari haqida. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi, bu usul, vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish,

yolvorish, tilak-istak bildirish, ma`qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo`l tilash va hokazolar).

4. Qoralash va jazo (ta`qiqlash, ta`na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo`rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar). Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to`rt xil usul umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasini o`taydi, ya`ni yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e`tibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o`g`iti orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga etadigan bo`lishadi. Bordi-yu bunda ham bolalar tushunishmasa yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazo usullaridan foydalanishga to`g`ri kelgan. Lekin bu so`nggi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so`nggi chora, aniqrog`i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta`sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to`y marosimlari) sayillar, turli nishonlashlar (tug`ilgan kunni nishonlash, qizlar bazmi, yigitlar bazmi), musobaqalar, turli marosim va boshqalar o`ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan.

O`quvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy an`analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Bular o`z navbatida, yangicha tarbiyaning uslub va shakllarini taqozo etadi.

Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urug`i oradan o`n yillar o`tgach unib chiqadi, buni ilmiy asoslab oldindan ko`ra bilish kerak.

Tarbiya usullarini o`rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko`nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo`lib olamiz: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar; faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari; o`z-o`zini tarbiyalash usullari hamda rag`batlantirish usullari va jazolash usullari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar. Bu guruhga o`quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e`tiqodni, ma`naviy va siyosiy g`oyalarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hislari va irodasiga ta`sir ko`rsatish usullari kiradi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o`quvchilar ongiga qanday talablar qo`yayotgani etkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmuninn tushunib olishlariga ko`maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi.

O`quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya`ni davlatni ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim. Tushuntirish — bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko`p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi o`quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g`ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o`quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o`z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog`langanligi borasida ma`lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog`i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o`quvchilarga bayroq, gerb, madhiya, konstitutsiya mohiyati tushuntiriladi.

Suhbat va hikoya. O`quvchi shaxsini g`oyaviy va axloqiy shakllantirishda o`qituvchining jonli so`zi eng ta`sirli usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, O`quvchilarda axloqiy ishonch uyg`otishning suhbat mazmuniga bo`lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: etik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o`zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go`zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go`zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta`lim va bilishga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o`quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uyg`otish, o`quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish juda muhimdir. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O`quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to`liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san`at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televidenie, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo`ladi. Suhbat ham, hikoya ham o`quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so`zlar orqali o`zbek tilida o`tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o`quvchilarning o`zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqi — shundan ta`minlanadi, o`quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O`quvchilar o`z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko`rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir.

O`qituvchining shaxsan o`zi namuna bo`lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta`sir ko`rsatadi. O`lar o`qituvchining darsda va hayotda o`zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o`z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O`quvchilar o`zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba`zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun o`qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o`zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo`lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so`zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo`lmasligi kerak.

Ilg`or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma`lumotlar, adabiiy asarlardagi, kinofil`mlardagi va spektakllardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta`sir qiladi.

Shuningdek, namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o`z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug` kishilardan ibrat olishga da`vat qilib kelganlar. Masalan: «Qush uyasida ko`rganini qiladi». Juda oddiy jo`ngina xulosa. Shu oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan

xalq, uyingda tartibli bo`l, aks holda bolang ko`chada tartibsiz bo`ladi. Bola oldida birovlarining g`iybatini qilma, bolang g`iybatchi bo`ladi, demoqchi.

Bunga o`xshash fikrlarni ko`plab keltirish mumkin.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari.

O`smir rivojlanishining, o`zligini anglashining asosiy omili — bu faoliyatdir.

Faoliyat o`quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o`zlashtirishlariga yordam beradi.

O`quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi foydali mehnat bilan shug`ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko`pchilik, jamoa bo`lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o`rgatish usullari. Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

O`qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O`quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish, tarbiya orqali hosil qiladi. Oxir-oqibatda odat ehtiyejga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko`p marotaba takrorlashni o`z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o`quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko`nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o`quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya — poydevorsiz binoga o`xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O`rgatish — ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O`rgatish bir necha izchil harakatlar yig`indisidir. O`qituvchi bu harakatlarni ko`rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud: faoliyatda mashq qilish; kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o`zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o`rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog`liq o`z istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo`sh vaqtdan to`g`ri foydalanish odatiga o`rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko`nikmalarni hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Topshiriq. O`quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo`lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O`quvchilar o`z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas`uliyatni his etishga o`rganadilar. Mehnat qilish O`quvchi xarakterini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab — bu o`quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo`lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo`lishi; turli ko`rsatma sifatida namoyon bo`lishi, u yoki bu harakatda rag`batlantiruvchi yoki uni to`xtatuvchi bo`lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo`lishi mumkin.

O`z-o`zini tarbiyalash usullari. O`quvchida o`z-o`zini tarbiyalashga, ya`ni o`z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo`lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo`ladi. O`quvchilarni, ayniqsa, o`rta va katta yoshdagilarni o`z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo`llash kerak.

O`z-o`zini tarbiyalash o`quvchilarning o`zini-o`zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta`sirchan vositasidir. O`quvchilar o`qishda, tarbiyada, dam olishda o`z-o`zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o`z-o`zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O`quv yurtida O`quvchilarning mustaqil faoliyati, ishi pedagogik jamoa bu ishga ma`naviy tayyor bo`lsagina, o`qituvchilar va o`quvchilar o`rtasida o`zaro

chuqur hurmat, xayrixoxlik, ishonch bo`lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o`zini o`zi idora qilish tashkilotlari o`z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so`z bilan ish birligi saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag`batlantirilishi e`tiborda bo`lishi kerak.

O`z-o`zini tarbiyalash sifatlari O`quvchi bunga tayyor bo`lganda, u o`zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko`rsata boshlagan vaqtda paydo bo`ladi. O`z-o`zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual) maslahat va ko`rsatmalar berilishi lozim. Bunda o`quvchilarni o`zlariga, xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatda bo`lishga o`rgatish juda muhimdir. O`quvchilar muayyan vaqtga belgilangan vazifalarni bajarish uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo`yadilar.

Shundan keyin vaqti-vaqti bilan o`zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa ularning o`z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas`uliyatlarini his etishlariga yordam beradi.

O`z-o`zini tahlil qilish. O`z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o`ylashga o`rgatadi.

O`z-o`zini nazorat qilish uchun o`quvchi o`zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va, aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O`z-o`zini baholash. O`quvchining qobiliyatini o`z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O`z-o`zini baholash qiyin, lekin o`quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. Shu bois o`quvchi irodali bo`lishi, o`z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo`lishi, ya`ni tahsil va tarbiyalanishni xoxlashi, o`zini o`rtoqlarining, yaqin kishilarining ko`zi bilan ko`rish va o`z-o`zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O`z-o`zini baholash o`quvchi uchun o`zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o`zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

**Rag`batlantirish va jazolash usullari.** O`quvchilarning har biri O`zining o`sib, ulg`ayib, kamol topib borayotganini bilishi kerak. Faqat shundagina O`quvchi o`zining olg`a siljib borayotganini ko`ra biladi, o`z kuchiga ishonadi.

Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, unga quloq solishadi, u jamoaga kerak, u o`qituvchisini qiziqtiradi. Bunga erishish uchun rag`batlantirish usulidan foydalanish lozim. Chunki rag`batlantirish bolaga ishonishga, unda bo`lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e`tirof etishga asoslangan. Rag`batlantirish o`quvchining ko`nglini ko`taradi, quvonch keltiradi, o`quvchini yanada tarbiyali bo`lishga yordam beradi. Amaliyotda rag`batlantirishning quyidagi turlari qo`llanadi:

1. O`quvchining kuchi etadigan, mas`uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o`quvchi o`z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi;
2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
3. Esdalik sovg`asi berish (kitob, ruchka, o`quv asbobi va boshqalar);
4. Maqto`v yorlig`i berish;
5. Stipendiya bilan taqdirlash;
6. Hurmat taxtasiga fotosuratini qo`yish;
7. Qo`llab-quvvatlash;
8. Mas`uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
9. Safda birinchi o`rinda turish;
10. Musobaqalarda bayroq ko`tarish;
11. Gazetada, radioda e`lon va h. k.

Har qanday rag`batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo`llanishi lozim. Ya`ni, rag`batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq bo`lishi, ketma-ket bo`lmasligi, haddan oshirib maqtash, boshqa o`quvchilarga taqqoslab ularni kamsitishga yo`l qo`ymaslik, rag`batlantirishga bo`lgan talabchanlikni bo`shashtirmaslik va hokazo.

Jazolash — bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o`quvchining va butun sinf manfaati uchun qo`llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo`llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo`rqitish, g`azablantirish ham yaxshi natija bermaydi. O`quvchi

qoʻrqqanidan yolgʻon gapirishga oʻrganadi, ikkiyuzlamachi boʻlib qoladi. Pedagogik talablarga javob beradigan jazo choralarga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish — eng engil jazo chorasidir. Oʻqituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qoʻyish mumkin.

Ogohlantirish — nomaʼqul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qoʻllaniladi.

Hayfsan berish — agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, oʻquvchi belgilangan intizomni buzaversa, oʻquvchining aybi qay darajada va uning intizomini qanday sharoitda buzganini eʼtiborga olib unga hayfsan eʼlon qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda, odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli boʻlsa, avvalo oʻz-oʻzini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli boʻladi. Tarbiyalashda shu hislarni ehtiyotkorlik bilan oʻstirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi, Bundan oqilona va oʻz oʻrnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo yaxshi oʻylab qoʻllanishi lozim, qizish ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka xarakterli, yaʼni bitta boʻlsin, oʻquvchilarning aybiga mos, muvofiq boʻlsin, tez-tez qoʻllanilmasin, jazolanuvchi ongida jazoni haqqoniy ekanligi aniq boʻlsin va ular oʻz ayblarini sezsinlar. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomondan qoʻllab-quvvatlangan jazo berilsa, uning taʼsir kuchi yana oshadi. Barcha hollarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni tahqirlamasligi, shaʼnini bukmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida taʼriflab berilgan tarbiyaning umumiy usullari oʻquvchilarga pedagogik taʼsir koʻrsatish sohalarining hammasini qamray olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiyaning muvaffaqiyatli qo'llanishiga, bu vosita mazkur sinf jamoasining tarbiya tizimidan qanchalik o`rin olganiga, qo'llanilayotgan tarbiya vositalari va usullari qo'yilgan tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog'liqdir.

II.4 Tarbiya jarayonida pedagogik maxorat

Pedagogika tarbiya ilmi hisoblanadi. Tarbiya - o'sib kelayotgan yosh avlodni mazkur muhit, jamiyat talablari asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Tarbiya jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod o'zidan oldingi avlod tomonidan to'plangan bilim, urf - odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtiradi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallash va hayotiy tajribaga ega bo'lish uchun o'z saviyasi va dunyoqarashini shakllantiradi. Demak, tarbiya yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlaydi. Bu faoliyat bilan tarbiyachilar shug'ullanadi.

Tarbiyalanuvchilar yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi va katta yoshdagilar deb guruhlariga ajratish qabul qilingan. Har bir guruhlariga tarbiyachilar rahbarlik qilar ekan ulardan mahorat talab qilinadi.

Tarbiyachilar qanday xislatlarga ega bo'lishlari lozim? Bu savolga buyuk pedagog A.S.Makarenkoning quyidagi so'zlari bilan javob bermoqchimiz:

Yuz xarakterlarini yaxshi egallamagan, o'z yuziga zarur manolarini berib bilmaydigan yoki kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas. Tarbiyachi tashkil qila bilishi, yura bilishi, hazillasha bilishi, quvnoq, jahldor bo'la olishi lozim. Tarbiyachi o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalansin. U ayni vaqtda nimani istashini va nimani istamasligini har doim bilishi kerak.

Agar tarbiyachi buni bilmasa, u kimni tarbiyalashi mumkin?

Tarbiyalanuvchilar yoshiga ko'ra guruhlariga ajratilishini bilamiz va quyida maktab yoshidagi va litsey, kollej talabalari guruhlariga tarbiyachilarining mahorati haqida so'z yuritamiz.

Tarbiyachilardan quyidagilar talab kilinadi: o'z - o'zini tarbiyalash, dunyoqarashining kengligi, o'zini tarbiyalashi uchun ko'proq ilm olishi,

intellektual qobiliyatini rivojlantirishi, estetik jihatdan tarbiyalanganligi, mehnatsevarligi va mehnatga layoqatlilik. Tarbiyachilar har qanday muammoli vaziyatdan chiqib olishi, tarbiyalanuvchilar bilan samimiy munosabatda bo'lishi lozim. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning har biridagi o'ziga xos xarakterini doimo hisobga olishi kerak. Tarbiyachi mehnatining mashaqqati shundaki, u maktabdagi ishlarni tashkil etishda albatta uning uy sharoiti, uni mahallasida, ko'chasida qurshab turgan muhitni yaxshilab o'rganmog'i lozim.

V.A.Suxomlinskiy takidlab o'tganidek, pedagog, bolalar ayniqsa katta yoshdagi tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarga juda ehtiyotkorlik bilan aralashuvi lozim. U shuningdek, ziddiyatlarning shunday sohasi borki, unda pedagogning aralashuvi nihoyatda cheklangan bo'lishi, hamma kelishmovchiliklar va ziddiyatlar ham kollektivda muhokama qilish obekti bo'lmasligi mumkin va lozim deb hisoblagan edi. Aftidan, yirik pedagogning bu fikri tarbiyachining yo'l - yo'riqlaridan biri bo'lib qolishi u tarbiyachiga pedagogik nazokat muammosini hal qilishda yordam berishi lozim.

Tarbiyachining muhim ijtimoiy yo'l - yo'riqlaridan biri dilkashlikdir. Ananaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay konuniy holdir. U dilkashlik odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlarigina bo'lib qolmay, shu bilan birga odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan xulk - atvori xamdir, yani ijtimoiy yo'l -yo'rig'idir.

Shaxsning xususiyatiga bo'lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida tariflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o'rnatish bilan birga qo'shib olib boriladi.

Tarbiyachilar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim ijtimoiy yo'l yo'riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. Tarbiyachida ularning mavjudligi uning pedagogik nazokatga rioya qilishining zamini va sharti hisoblanadi.

Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar kollektivlarda talabchan va quvnoq tarbiyachi bo'la oladigan bolalarning faol ijodkorlik bilan to'la hayotini tashkil

etib, ular orasida o'zaro xayrihoxlik, g'amxo'rlik vaziyatini, zavqli vaziyatini vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obro' - etibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni o'z do'stlaridek qabul qilishga moyildirlar. Bunday munosabat eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga jo'shqin qulaylik bag'ishlaydi, uning ko'pgina tashkiliy vazifalarini hal etishni osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini mohirlik bilan samarali hal etishga yordam beradi.

Axloqiy tarbiyalanganlik - shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, jamoaviylik) yoki axloqchilikning asosiy belgilarining rivojlanishi darajasiga karab aniqlanadi. Aqliy, zehniy tarbiyalanganlik - aqliy va zehniy sifatlari, fazilatlarining rivojlanganlik darajasiga shaxsning yoshiga ko'ra hamma davrlarida intellektual tarbiyalanganligi haqida xulosa chikarish mumkin. Aqliy tarbiyaning maktab yillaridagi mezoniy fazilati mantiqiylik hisoblanadi. Balog'at yoshida esa, aqlning qobiliyatlari yangi malumotlarni vujudga keltiradi. Maktab o'quvchilarning aqliy rivojlanishini boshqarish uchun uch jihat bo'yicha malumotlarni olish kerak: bilishliyk, faollik, aqlning rivojlanganligi (fikrlovchanlik).

Demak, tarbiyachi o'quvchilar bilan olib boriladigan manaviy - marifiy ishlarni rejalashtirishda ko'proq bahs - munozara usulida olib boriladigan tadbirlarni belgilashi lozim.

XULOSA

Tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya yaxlit pedagogik jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Tarbiya jarayoni murakkab jarayon bo'lib, u uzoq davom etadi hamda uning natijasini ko'rish qiyinroq kechadi. Bolalarni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtidan boshlanadi va muntazam ravishda ta'lim berish bilan birga olib boriladi. Bolaning o'sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy-xayotning ob'ektiv talabalarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlarni tashkil etadi.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari-yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga quyiladigan eng muhim talabalarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'quvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga quyilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'xshash jihatlariga ko'ra uch guruxga bo'linadi.

Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari tarbiya metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga tarbiya qoidasi-pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy

Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi, tarbiyada o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaev M. Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat // Muloqot.-1998.-№3.
2. Abdullajonova D. Milliy tarixiy xotira: mohiyat va talqin // Jamiyat va boshqaruv.- 2004.- №4.
3. Abduraxmonov A. Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarimiz // Sharq yulduzi.- 1990.- №12.
4. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir.-T.: O'qituvchi, 1996.
5. Amir Temur o'g'itlari.- T.: Navro'z, 1992.- 63 b. (Amir Temur vasiyati.-T.: G'afur G'ulom, 1991.
6. Ahmedov B. Ajdodlar o'g'iti.- T.: Cho'lpon, 1991.
7. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari.-T.:O'qituvchi,1995.
8. Gasanov Z.T. Problemy vospitaniya patriotizma, drujby narodov, veroterpimosti: neobxodimost' novyx podxodov k razrabotke metodologii i teorii vospitaniya // Pedagogika. – 2001.- №4. – S.
9. Gera R. Vospitanie patriotizma sredstvami kraevleniya // Vospitanie shkol'nikov. – 2005. -№10. –S.
10. Jabborov A.M. O'zbek maktabi o'qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari. Psixol. fanl. dokt. diss. T.: 1999 y.
11. Yo'ldoshev J. Ta'limimiz istiqlol yo'lida.-T.: Sharq, 1996.
12. Yo'ldoshev M. Madaniyat insonni ulug'laydi // Muloqot.-2000.-№ 5.
13. Yo'ldosheva R. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.-T.: O'qituvchi, 1994.
14. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.
15. Meliboev A. Vatan saodati.- T.: Sharq, 1998.
16. Mikryukov V.Yu. Ispol'zovanie fenomena Rossiyskix voenskix traditsiy v voenno-patrioticheskom vospitanii uchashixsya // Innovatsii v obrazovanii. – Moskva, 2007. - №2.- S.
17. Ming bir hadis.- T.: Movarounnahr, 1998.- 144 b.
18. Munavvarov A. Pedagogika. Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T.: O'qituvchi, 1996.

19. Murodov M. O`zbekning shoir bo`lmagani kam // Muloqot.- 1991.-№7.
20. Musurmonova O. Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O`qituvchi, 1996.